Qishloq xo’jaligi ekinlari kasalliklariga qarshi kurashishda samarali vosita

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti olimlari tomonidan ilk bora dunyo bozorida analogi bo’lmagan ***“Kuprumxit” preparat***ni ishlab chiqarish texnologiyasi yaratildi.

“Kuprumxit” preparati g’o’za va bug’doy o’simliklari urug’larini ekish oldidan ishlov berishda hamda o’simliklar kasallanishining oldini olishda *0,5 % li* eritma shaklida qo’llaniladi. Qishloq xo’jaligi ekinlari o’simliklari urug’larini polimer shaklli “Kuprumxit” preparati bilan kapsulalab ekish natijasida urug’ni noqulay ob-havo sharoitlaridan himoya qiluvchi polimer plyonka hosil bo’ladi. G’o’za va bug’doy urug’larini “Kuprumxit” preparati bilan kapsulalab ekishda 20 l/t maqbul sarf me’yori sifatida aniqlangan. Preparat o’simliklarda kasallik qo’zg’atuvchi mikroorganizmlarga nisbatan samarali ta’sirga ega bo’lgan va o’sishni jadallashtiruvchi, immun faollikni oshiruvchi ekologik faol, bioparchalanuvchan, tarkibida biologik faol xitozan va mis (II) ionlari saqlovchi hosilasi hisoblanadi.

“Kuprumxit” preparati tarkibidagi ta’sir etuvchi moddasi hisobiga qishloq xo’jaligi o’simliklarida

uchraydigan kasalliklarga qarshi samarali ta’sirga ega preparat hisoblanadi. Preparat qishloq xo’jaligida samarali preparat hisoblanib, g’allaning qorakuya kasalligida, shuningdek, mevali daraxtlarda – *Monilia fructicola, Monilia fructiigena* zamburug’lari chaqiruvchi monolioz kasalligini oldini olish va davolashda *80-85%* biologik faollikka ega.